

25-Mart, 2025-yil

ESHITISHDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINING BIRLAMCHI XARAKTERI

Aliboyeva Shohista Bahodir qizi

Jizzax davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus Pedagogika: Logopediya yo‘nalishi 4- bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishida kamchiligi bo‘lgan bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining birlamchi turlari yoritiladi. Nutq rivojlanishining tabiiy jarayoni eshitish orqali shakllanadi, shu sababli eshitish qobiliyatining yetishmovchiligi bolalarning fonematik eshitishi, artikulyatsiyasi, grammatick tizimi va intonatsiya qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada ushbu nuqsonlarning sabablari va asosiy xususiyatlari yoritilib, ularning bola rivojlanishiga ta’siri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Eshitish buzilishi, nutq nuqsonlari, fonematik eshitish, artikulyatsiya, leksik rivojlanish, logopediya, maxsus pedagogika.

Nutq — bu nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning ijtimoiy rivojlanishi va ta’lim olish jarayonining asosiy qismi hamdir. Shu sababli, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq nuqsonlari jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday bolalar atrof-muhit bilan aloqa qilishda, ta’lim olishda, mustaqil fikrlash va o‘z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu bois, eshitish qobiliyatining pasayishi natijasida yuzaga keladigan birlamchi nutq nuqsonlarini chuqur o‘rganish va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash dolzarb masalalardan biridir. Nutqning to‘g‘ri rivojlanishi uchun bola normal eshitadigan bo‘lishi muhimdir. Eshituv pasaygan bolalar uchun bevosita eshitish kamchiligi bilan bog‘liq nutq komponentlarining (tarkibiy qismlar) shakllanmaganligi xosdir.

Eshitish organi bola tug‘ilgan kunidan boshlaboq ishga tushadi. Hayotining ikkinchi haftasiga kelib, bolaning ovozga qulq solayotganini kuzatish mumkinki, bu eshituv analizatorining funksional jihatdan yetarlicha yetukligi hamda markaziy nerv sistemasida eshituv dominanti paydo bo‘la olishini ko‘rsatadi. Hayotining 2-oyiga kelib bola sifat har xil tovushlarni ajrata boshlaydi. 3-oydan boshlab ovoz kelgan tomonga qarash odati paydo bo‘ladi. Bola 3-4 oylik bo‘lganda tovushlarning tonini ajrata boshlaydi. Bolalarda nutqni eshitish bo‘sag‘asi yosh ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi, 6,5 -9,5 yashar bolalarda nutqni eshitish bo‘sag‘asi katta yoshli bolalardagiga qaraganda yuqori bo‘ladi. Nutqining rivojlanib borishida bolalarning kattalar bilan aloqa bog‘lab, suhbatlashishi katta ahamiyatga ega. Bu esa bolaning eshitib eslab qolish qobiliyati va lug‘at boyligining boyib borishiga yordam beradi.

Tug‘ma kar tug‘ilgan bolalarda atrofdagilar nutqiga taqlid qilish rivojlanmaydi. Gulash ularda normal eshitadigan tengdoshlaridagidek paydo bo‘ladi. Lekin u eshituv idroki tomonidan mustahkamlanmaganligi sababli asta-sekin so’nib boradi. Bu holatlarda maxsus pedagogik ta’sirsiz bolalarda nutq rivojlanmaydi. Ilk yoshlik paytida bola tovush, bo‘g‘in va atrofdagilarning so‘zlarini noaniq, buzilgan holda idrok etadi. Shu sababli bolalar bir

25-Mart, 2025-yil

fonemani ikkinchisi bilan aralashtirib yuboradilar, nutqni yomon tushunadilar. Juda ko‘p xollarda bolalar o’zlarining noto‘g’ri talaffuzlarini sezmaydilar. Natijada u od़at tusiga kirib, turg‘un bo‘lib qoladi. Keyinchalik bu holat qiyinchilik bilan bartaraf qilinadi. Eshitishning yaqqol va turg‘un pasayishi nafaqat nutqni idrok qilish, balki ekspressiv nutqning buzilishiga (yoki rivojlanmasligiga) ham olib keladi. Bu holda, har bir aniq holatda ekspressiv nutqning buzilishi (rivojlanmaganligi) darajasi eshitishning pasayishi darajasiga (daraja qanchalik og‘ir bo‘lsa shunchalik yomonlashadi), zaif eshitishning boshlanish vaqtiga, bola rivojlanishining shart-sharoitiga (nutqning rivojlanishi va saqlanishi bo‘yicha maxsus choralar ni qo’llash uning birmuncha yaxshi holatini ta’minkaydi) bog’liq bo‘ladi. Fonematik idrok asta sekin, talaffuzning shakllanishi bilan parallel ravishda rivojlanadi. Od़atda bola 4 yoshga yetganda o‘z ona tilidagi barcha fonemalarni eshitish orqali ajrata olish qobilyatiga ega bo‘lishi kerak hisoblanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi bolaning nutq shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eshitish cheklangan bolalarda fonematik eshitish buzilishi, artikulyatsiya muammolari, leksik va grammatik tizimning rivojlanmaganligi hamda nutqning ritmik va intonatsion xususiyatlari yetarlicha shakllanmaydi. Bu esa bolaning muloqot qilish, fikrlash va ta’lim olish jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun eshitish cheklangan bolalar bilan individual ish olib borish, maxsus logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish, multimodal o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish va eshitish moslamalaridan samarali foydalanish zarur. Shuningdek, pedagog va logopedlarning doimiy hamkorligi bolaning nutq rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Власова, И. А. (2020). Коррекция нарушений речи у детей с недостатками слуха. Москва: Педагогика.
- 2.Qodirova F.U. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari: Avtoref p.f.d. dis... - T.:TDPU, 2020. 32b
- 3.Maxsus pedagogika (darslik). P.M.Po‘latova, L.SH.Nurmuxammedova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A.D.Sultonova. - T.:Fan va texnologiya. 2014.
4. Ковшиков, В. А. (2015). Основы сурдопедагогики. Москва: Академия.
5. Назарова, З. М. (2019). Eshitishida kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus pedagogika. Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b.